

## O'zbekiston Prezidenti Vengriya qahramonlari xotirasiga hurmat bajo keltirdi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vengriyaga rasmiy tashrifi doirasida Budapesht shahrining Qahramonlar maydonidagi xotira ustuni poyiga gulchambar qo'ydi.

Davlatimiz rahbari Vengriya davlatchiligini barpo etishga hissa qo'shgan buyuk arboblarning xotirasiga hurmat bajo keltirdi. Marosim faxriy qorovul xizmatchilari ishtirokida, harbiy orkestr sadolari ostida o'tdi.

Ushbu maskan Budapeshtning bosh maydonlaridan biri bo'lib, YUNESKONing Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Maydon markazida Mingyillik ustuni qad rostlagan, uning poyida mojar qabilalarining 7 nafar boshlig'i haykallari o'rnatilgan. Ushbu yodgorlik vengerning bugungi vatanini topishi va Vengriya qirolligiga asos solinishiga bag'ishlangan.

Majmuada venger xalqining atoqli namoyandalari haykallaridan iborat 2 ta kolonnada joylashgan. Yodgorlikning old tomonida Vengriya qahramonlari sharafiga xotira toshxatasi o'rnatilgan.



Manba